



**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI SAMARQAND
FILIALI
O'ZBEKISTON STOL TENNISI FEDERATSIYASI SAMARQAND
VILOYATI HUDUDIIY BO'LIMI**

**Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib
etish hamda ularni sport bilan muntazam shug'ullanishga jalb qilish
yuzasidan hamkorlik qilish to'g'risida
HAMKORLIK MEMORANDUMI**

Mazkur Memorandum oliy ta'lim muassasalari talabalarini (bundan buyon matnda talabalar deb yuritiladi) jismoniy tarbiya va sportga keng jalb qilish, jismoniy faolligini oshirish, ular o'rtasida turli musobaqalar tashkil qilishda o'zaro hamkorlik qilish tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali hamda O'zbekiston stol tennisi federatsiyasi Samarqand viloyati hududiy bo'limi (bundan buyon matnda Tomonlar deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev raisligida 2025-yil 13-fevral kuni Olimpiya va Paralimpiya harakatini yanada rivojlantirish, ommaviy sportni yangi bosqichga olib chiqish hamda aholi jismoniy faolligini oshirish chora-tadbirlari yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta'minlash, jumladan talabalarining jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishini tashkil etish hamda ular orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib etishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish borasida o'zaro hamkorlikni amalga oshiradi.

2. Tomonlar ushbu tadbirlarni amalga oshirishda bir-birlari bilan ma'lumotlarni almashib borish choralari ko'radilar.

2-bob. Tomonlarning maqsad va vazifalari

3. Hamkorlik tadbirlarini amalga oshirishning asosiy maqsadi talabalarni jismonan sog'lom etib tarbiyalash, bo'sh vaqtini mazmunli o'tishini tashkil etish, ularning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun sport inshootlarida shart-sharoitlar yaratish, ularning sog'lig'ini mustahkamlashga ko'maklashadigan aniq dasturlarni amaliyotga joriy etish va bu boradagi targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borishdan iborat.

4. Hamkorlik tadbirlari quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

oliy ta'lim muassasalari sport inshootlarida sport to'garaklari va sport seksiyalari faoliyatini yo'lga qo'yish;

talabalarni sportga bo'lgan qiziqishini inobatga olib, turli jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini uyushtirish, sport sohasida yuqori natijalarga erishgan sportchilar bilan uchrashuv tashkil etish orqali ularni sportga jalb qilish, ular o'rtasida turli sport musobaqalarini tashkil etish, g'oliblarni rag'batlantirib borish;

talabalar o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib etish maqsadida sport turlari bo'yicha ularni shug'ullanishlari uchun sport inshootlari va sport jihozlaridan to'liq foydalanish imkoniyatlarini yaratish;

talabalarga ortiqcha vaznning zararlari, alkogol va tamaki mahsulotlar iste'molini cheklash to'g'risida seminarlar o'tkazish hamda televideniye va ijtimoiy tarmoqlarda ko'rsatish uchun ijtimoiy roliklar tayyorlash;

talabalarni jismoniy tarbiya va ommaviy sportga jalb etish bo'yicha ommabop teleradio dasturlarni tayyorlash, hamkorlikda amalga oshirilgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida yoritish choralari ko'rish hamda tomonlarning rasmiy veb-saytlarida keng yoritilishini muvofiqlashtirishdan iborat.

3-bob. Tomonlarning huquqlari

5. Hamkorlik tadbirlarini amalga oshirishda Tomonlarning huquqlari quyidagilardan iborat:

talabalarni sportga keng jalb qilish, ular o'rtasida turli musobaqalar tashkil etishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirishga oid turli tashabbuslar va targ'ibot materiallarini ishlab chiqish;

tomonlarning tegishli masalalarga oid yig'ilishlari kun tartibiga kiritilgan masalalarni muhokama etishda ishtirok etish hamda mazkur masalalar yuzasidan tavsiya va takliflar kiritish;

talabalar salomatligini muhofaza etish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb qilish hamda turli musobaqa va tadbirlarni tashkil etishga oid boshqa ishlarni amalga oshirish.

4-bob. Tomonlarning majburiyatlari

6. Hamkorlik tadbirlarini amalga oshirishda Tomonlarning majburiyatlari quyidagilardan iborat:

6.1. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali:

oliy ta'lim muassasalarining sport inshootlarida sport to'garaklari va sport seksiyalari tashkil etilishini ta'minlash;

sport tadbirlari hamda musobaqalarini o'tkazishda tashkilotchilarga ko'maklashish;

"Besh tashabbus olimpiadasi", sport sinovlari, "Barkamol avlod", "Universiada", "Talabalar ligasi" va "Oliy ta'lim kubogi" va boshqa ommaviy sport tadbirlarini hamkorlikda yuqori saviyada tashkil etish va o'tkazish;

talabalar ishtirokida sport-sog'lomlashtirish tadbirlari va ommaviy sport tadbirlari o'tkazish to'g'risidagi topshiriqlar ijrosini ta'minlash va ushbu tadbirlarini tashkil etish;

talabalar ishtirokida o'tkaziladigan ommaviy sport tadbirlari g'olib va sovrindorlarini Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali sport klubi mablag'lari hisobidan rag'batlantirish choralari ko'rish;

ta'lim muassasasida jamoaviy sport turlari bo'yicha sport klublari faoliyatini yo'lga qo'yish hamda ular o'rtasida sport musobaqalarini tizimli tashkil qilib borilishini ta'minlash.

6.2. O'zbekiston stol tennisi federatsiyasi Samarqand viloyati hududiy bo'limi majburiyatlari:

Oliy ta'lim muassasalaridagi sport inshootlariga talabalarni jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishlari uchun sport turlari bo'yicha barcha shart sharoitlar yaratishga ko'maklashish;

talabalar o'rtasida jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini tashkil etishda musobaqa tashkilotchilariga ko'maklashish;

talabalarni o'rtasida "Besh tashabbus olimpiadasi", sport sinovlarini "Barkamol avlod", "Universiada", "Talabalar ligasi" va "Oliy ta'lim kubogi" va boshqa ommaviy sport tadbirlarini hamkorlikda yuqori saviyada tashkil etish va o'tkazish;

sport musobaqalarida yuqori natijalarga erishgan sportchilarga tegishli sport unvonlari va razryadlarini taqdim etish yuzasidan O'zbekiston respublikasi sport vazirligiga taklif kiritish;

Xalqaro talabalar sporti federatsiyasi (FISU) tomonidan o'tkaziladigan "Universiada" hamda xalqaro va kompleks sport musobaqalarida talabalardan iborat O'zbekiston milliy terma jamoasi ishtirokini ta'minlash.

5-bob. Yakuniy qoidalar

7. Mazkur Memorandumning ijrosi yuzasidan olib borilgan ishlar har uch oyda bir marotaba Tomonlar o'rtasidagi yig'ilishda ko'rib chiqiladi.

8. Mazkur Memorandum imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va ikki yil davomida amal qiladi.

9. Mazkur Memorandum Tomonlardan birining tashabbusi bilan ikkinchi tomonni bir oy oldin yozma ravishda ogohlantirish orqali bekor qilinishi mumkin.

10. Mazkur Memorandum bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki asl nusxada o'zbek tilida tuzilgan va Tomonlarning har birida bir nusxadan saqlanadi.

**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Samarqand filiali sport klub raisi
o'rinbosari**



Sh.S.Mizomov

Samarqand sh.,

2025 yil _____,

_____ son

**O'zbekiston stol tennisi
federatsiyasi Samarqand viloyati
hududiy bo'limi ijrochi deriktori**



M.N.Nazarov

Samarqand sh.,

2025 yil 4-avgust

33-M-4 son